Texnologiyalar yordamida og'zaki tarjimani takomillashtirish: AI va avtomatik translyatsiya tizimlarining imkoniyatlari	580
Rajabova Umida Rajab qizi	
Kompyuter grafikasi vositalari yordamida ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik asoslari	583
Ergasheva Dilafuz Chori qizi	
A Conceptual Teacher Digital Competence Model for Vocational Education	587
Alisher Jumanov, Guloyim Rakhimboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligi tushunchasi	591
Sa'dullayeva Nafisa Ilhomjon qizi, Abdullayev A'zimjon Abduvali o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalar iqtidorini rivojlantirish muammosining pedagogik-psixologik talqini	594
Sapayeva Gulnoz Azimbayevna	
Zamonaviy va an'anaviy tarbiya uslublarining maktabgacha yoshdagi bolalarga psixologik ta'siri. O'zbekiston oilalarida qiyosiy tahlil	600
Tursunova Aziza Ixtiyorovna	
Tarbiyachi faoliyatida tarbiyalanuvchi shaxsni rivojlantirishning zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlari	603
Yusupova Vasila Yangibayevna	
Профессиональная этика педагога высшего учебного заведения	606
Журабекова Хабиба Мадаминовна	
Boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va pedagogik texnologiyalar	609
O'rmonov Elmurod Mamasoliyevich	



JAMIYATDAGI O'ZGARISHLAR VA TIL RIVOJI



Igamnazarova Nafisa Saidnazarovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
PhD, dotsent

Annotatsiya: Til – millatning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari, diniy e'tiqodlari va o'ziga xos dunyoqarashini mujassam etuvchi muhim ijtimoiy-madaniy hodisadir. U ajdodlar merosini avlodlarga yetkazuvchi asosiy vosita bo'lib, jamiyat taraqqiyoti va shaxs tafakkurining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Tilning yo'qolishi milliy o'zlikning yemirilishiga, ma'naviy bo'shliqlar va inqirozlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Shu bois tilni asrash, rivojlantirish va unga nisbatan ijtimoiy e'tiborni kuchaytirish har bir jamiyatning ustuvor vazifalaridan biridir.

Kalit so'zlar: moddiy olam, me'yor, taraqqiyot, e'tibor, tafakkur, soha.

Abstract: Language is a fundamental socio-cultural phenomenon that embodies a nation's historical memory, spiritual values, religious beliefs, and distinctive worldview. It serves as a primary means of transmitting ancestral heritage to future generations and plays a crucial role in societal development and the formation of human thinking. The loss of language results in the erosion of national identity and leads to moral and spiritual crises. Therefore, preserving and developing language, as well as enhancing public awareness of its significance, constitutes a priority task for modern society.

Key words: material world, norm, development, attention, thinking, field.

Аннотация: Язык представляет собой важнейшее социально-культурное явление, отражающее историческую память народа, его духовные ценности, религиозные убеждения и уникальное мировоззрение. Он служит основным средством передачи наследия предков последующим поколениям и играет ключевую роль в развитии общества и формировании человеческого мышления. Утрата языка приводит к разрушению национальной идентичности и возникновению духовного кризиса. В этой связи сохранение, развитие и повышение общественного внимания к языку являются приоритетными задачами современного общества.

Ключевые слова: материальный мир, норма, развитие, внимание, мышление, сфера.

KIRISH

Til fikrni shakllantiruvchi va ifodalovchi moddiy vositadir. Bu jihatdan til va tafakkur muayyan shaklni o'zida namoyon etadi. To'rtinchidan, til uzluksiz rivojlanib, takomillashib boruvchi hodisadir. Kishilar odatda bir-birlari bilan til orqali munosabatda bo'ladi. O'zbekiston – ko'p millatlik davlat. Respublikada 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. O'zbekiston aholisining 80 foizdan ortig'ini o'zbeklar tashkil etib, ularning umumiy aholi sonidagi ulushi muntazam oshib bormoqda. Shuningdek, boshqa millatlarning katta jamoalari ham mavjud. 10 foizdan ortig'i – Markaziy Osiyo xalqlarining boshqa vakillari (5 foizga yaqini – tojiklar, 3 foizga yaqini – qozoqlar, 2 foizi – qoraqalpoqlar, 1 foizi – qirg'izlar, shuningdek turkmanlar va boshqalar).

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuniga (yangi tahrir) muvofiq, O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi. Fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar. Shu bilan birga, O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha millat va elat tillariga hurmat ko'rsatiladi va ularning rivoji uchun sharoitlar yaratadi. Ommaviy axborot vositalari O'zbekistonda istiqomat qiluvchi millat va elatlarning bir necha tillarida e'fira uzatiladi va chop etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek tilining asriy va azaliy maqom-martabasiga muhabbat-ehtiromini ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoq sahifalari orqali turli ko'rinishlarda namoyish qilinmoqda. Albatta, o'zligini qadrlagan, o'z millatiga daxldorligini his qilgan, milliy g'urur va iftixorini yuqori tutgan har bir fuqaro bunday yo'l tutishi tabiiy.

O'zbek tili davlat tili sifatida ijtimoiy turmushimizning barcha sohalarida qonuniy ravishda qo'llanmoqda, milliy ma'naviyatimizning betakror ko'zgusi sifatida, xalqimizning borligi va birligi belgisi sifatida o'rganilmoqda hamda o'rgatilmoqda.

Tajribalardan ayonki, ko'p til bilish – rivojlanishning ilg'or qonuniyati, muvaffaqiyat garovidir. Ammo o'z milliy tilni unutish, o'zga tillar bilan chog'ishtirish, qorishtirish evaziga emas! O'zga tillarni o'rganish orqali taraqqiyotga erishishni yoqlab chiqqan ma'rifatparvar jadidlar ham bu borada ehtiyotkor va mas'uliyatli bo'lishgan.

Xususan, Abdulla Avloniy o'z qayg'usini "Milliy tilni yo'qotmak millat ruhini yo'qotmakdur. Hayhot! Biz turkistonlilar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun, kundan-kun unutmak va yo'qotmakdadurmiz. Tilimizning yarmiga arab, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmakdadurmiz... Zig'ir yog'i solub moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur", - degan o'tli fikrlarida ta'sirchan oshkor qilgan. Bu fikrlar ayni kunda yana ham dolzarblashmoqda.

Milliy tilga e'tibor va ehtirom millatsevarlik, vatanparvarlik, oliyanoblikning yorqin ifodasi. Milliy til – milliy urf-odat, qadriyatlarni, milliy ma'naviy meros-manbalarni bilish, o'zlashtirish, yetkazib berish, targ'ib etishda, o'zlikni anglash, anglatishda birlamchi vosita. O'z milliy tiliga muhabbati yo'q, o'zga tillarga ehtiromi yuksak insonni millat vakili, vatanparvar shaxs deb atash mumkinmi? Til millatga, jamiyatga, Vatanga daxldor oliy tushuncha. Shu boisdan bu borada ehtiyotkor bo'lish, ajdodlardan meros buyuk ne'mat ildiziga bolta urmaslik talab qilinadi.

Har bir insonning o'z ona tiliga bo'lgan mehr-muhabbati bo'lakchadir, u kishining qalbida, yurak to'ridadir. Shu boisdan ham har bir inson ona tilini qadrlamog'i, uni sofligini saqlashga, rivojiga o'z hissasini qo'shmog'i lozimdir. Shuni ham unutmasligimiz joizki, insonning ona tiliga bo'lgan mehr- muhabbatini oshirishda, albatta, kitobxonlik madaniyatining ham o'rni juda kattadir. Zotan, turli xildagi badiiy, publitsistik va ilmiy xarakterdagi asarlar mutolaasi jarayonida o'quvchi ongida ona tiliga bo'lgan, uning sehra jozibasiga, tarovatiga bo'lgan mehri ham bosqichma-bosqich rivojlana boradi, o'z ona tilida xatosiz yozish va gapirish ko'nikmasi shakllanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbek tiliga davlat tili maqomini berish jarayoni ham osonlikcha ro'y bergani yo'q. XX asrning 80-yillarida boshlangan urinishlar natijasi o'laroq, 1988-yilga kelib qator olimlarimiz tilimiz haq-huquqini tiklash yo'lidagi dadil fikrlari bilan matbuotda chiqishlar qildilar. Nihoyat, 1989-yil 21-oktabrda "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. 1995-yil 21-dekabrda qayta tahrir qilingan mazkur tarixiy qonun mazmun-mohiyati va ijtimoiy ahamiyati jihatidan dolzarbdur. Har bir fuqaroning davlat tili va u haqidagi muayyan bilimlarga ega bo'lmog'i ham foydadan xoli emasdir.

Davlat tili to'g'risida"gi Qonun boshqa millat va elatlarining tillariga nisbatan ham hurmat va e'tiborda bo'lishga, bag'rikenglik tamoyillariga da'vat etadi: "O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi" (2-modda).

"O'zbekiston Respublikasida davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi..." (4-modda). Ya'ni, ona tili boshqa til bo'lgan, o'zga tillarda so'zlovchi odamlarga nisbatan muloqotni davlat tilida tashkil etish borasida taklif kiritish yoki bosim o'tkazish qonunan ta'qiqlanadi. Inson o'z ona tiliga qanday munosabatda bo'lsa, boshqa tillarga ham shunday munosabatda bo'lishga chaqiradi.

Hozirgi globallashuv sharoitida adabiy til qo'llanish doirasining kengayishi, til birliklarining badiiy, publitsistik matnlarda ijtimoiy xoslanish tamoyillarining chuqurlashuvi kabi masalalar haqida bakalavr talabalarga yetarli tushuncha berish, ularning turli funksional stillarga xos matnlarni ijtimoiy xoslanish nuqtai nazaridan mustaqil tahlil qila olish ko'nikmalarini shakllantirish, davlat tilining amaliy jihatdan talablarga mos tarzda qo'llanilishi, ish yuritishda undan samarali foydalanish malakalarini takomillashtirishdan iboratdir.

Sharq mutafakkirlarining so'zning ijtimoiy xoslanishi haqidagi qarashlari, adabiy tilning funksional stillari va ularni o'rganish muammolari, tilning funksional stillarini tasniflashda ijtimoiy xoslanish tamoyillarining o'rni, publitsistika va uning janrlari haqida, badiiy va publitsistik matnlarda so'zning ijtimoiy xoslanishi hamda matnda so'zning ijtimoiy xoslanishini aniqlash masalalari kabi mavzularni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida o'zbek adabiy tilining qanchalik jozibali ekanligini ko'rishimiz mumkin.



Navoiy adabiy tili, uning jonli so'zlashuv tili va o'zbek adabiy tiliga munosabati masalasi ancha murakkab bo'lib, bu haqda olimlar tomonidan turlicha fikrlar bayon etilgan. Bu haqdagi dastlabki ma'lumotlar Boburning mashhur asari "Boburnoma"da keltirilgan. Bobur Andijon shahri aholisi va uning tili haqida ma'lumot berib, u Navoiyning asarlari tiliga juda yaqin ekanligini qayd qiladi: eli turkdur shahar va bozorisida turkiy bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim Xirida nash'u namo topibtur, bu til biladur ("Boburnoma" 60-b). Boburning bu fikri ma'lum tarixiy asosga ega. Chunki ikki madaniy markaz – sharqiy qarluq-chigil-uyg'ur hamda g'arbiy o'g'iz-qipchoq dialekt birliklari negizida shakllangan eski turkiy til asosida rivojlanib, XIII-XIV asrlarda to'la tashkil topgan umumxalq o'zbek adabiy tili juda katta hududda-Movarounnahr va Xurosonda keng qo'llangan. Bu adabiy tilning lug'at tarkibi, fonetik va morfologik qurilishi me'yorlari tarkib topan edi. Uning rivojlanishida, jonli so'zlashuv tiliga yaqinlashuvida Navoiyga qadar yashab ijod etgan shoir-yozuvchilarning xizmati ham katta bo'ldi. Mana shu adabiy til va uning ma'lum shevalarida so'zlashgan xalq, turk-o'zbek aholisi va XIV-XV asrlarda Farg'ona vodiysida, Toshkent vohasi, Samarqand viloyati va hozirgi Afg'onistonning shimoliy qismida yashaganlar. Demak, Navoiy asarlari ham xuddi mana shu tilda – turk-o'zbek tilida yozilgan edi.

TAHLIL VA NATIJALAR

X.Vamperi, I.Berezin, I.Ilminskiy kabi kator sharqshunos olimlar Boburning bu fikrini quvvatlaydilar. Lekin I.Ilminskiy Navoiy adabiy tili Andijon aholisining tiliga yaqin bo'lsa ham, aynan bir xil bo'lgan emas, deb ta'kidlaydi. Chunki, xalq jonli tilida arab va fors-tojik tilga xos so'zlar va iboralar Navoiy asarlarida bo'lganidek ko'p darajada bo'lgan emas.

Darhaqiqat, yirik rus olimi R.Melioranskiy ta'kidlagandek, XIV-XV asrlarda Movarounnahrda, Xuroson va Xorazm vohasida iste'molda bo'lgan o'zbek adabiy tili o'z tarkibi, til bilan mahalliy shevalarning o'zaro munosabati jihatdan murakkab xususiyatga ega edi. Shu jihatdan Navoiyning adabiy tilini aniqlashda o'sha davrda adabiy tilining fonetik tizimini, tovush tarkibini aniqlash, uni sheva xususiyatlari bilan qiyoslash muhim ahamiyatga egadir.

Navoiy "Muhokamat-ul lug'atayn" asarida unli tovushlarning turlicha talaffuz qilinishi haqida gapirib, "yoyi ma'rif – yoyi majhul orqali yozilishi bir xil aytilishi har xil so'zlardan bir qanchasini keltiradi, ularga izoh beradi. Turkiy tilda bu harflarning har biri uch-to'rttadan muqobilga ega ekanligini ko'rsatadi "... turki domdur, yana turni andin dakikdokdurki, uyning turidur va turki barchadin arikdur". Ko'rinadiki, Navoiy tovushlarning qattiq yumshoqligiga e'tibor bergan, qattiq va yumshoq u, u (o) o, u (u), shuni ngdek e, i tovushlarini bir-biridan farqlay olgan. Yuqoridagi so'zlar va tovushlarning xususiyatini aniqlashda Navoiy o'zi uchun tayanch til negizi bo'lib xizmat qilgan o'zbek adabiy tiliga asoslanadi.

Shuningdek, -dagi (dagi-tag'in, yana va dagi ma'nosida), nari, nariroq va o'z ma'nolarida so'zlarning so'z o'yini lyxom san'atida qo'llanishi va aytilishi ham ochiq o'unlisi xali alohida fonema darajasida ko'tarilmaganligini ko'rsatadi. Shuni ng uchun a fonemasining varianti, bir ko'rinishi deb qarash maqsadga muvofiq ko'rinadi.

XIV-XV asrlar o'zbek adabiy tilida, Alisher Navoiyda ham unlilar ohangdoshligining qattiq yumshoqlik va lab ohangdoshligi hodisasi saqlanganligini ko'rish mumkin: barduk (borduk) – kelduk (kelduk) yoga (uyga)-kezga (kuzga) tilim-kozum (ko'zum) baim (borip)- korup (ko'rup) kabi. Shu bilan birga singarmonizm hodisasinig ba'zi hollarda buzila boshlaganligi ham ko'zga tashlanadi. Odamlig'-odamlig' kabi. Navoiy tili uchun xos undoshlarning qo'llanishida mustaqil lab-tish tovushi f ajralib turadi. Bu undosh aslida turkiy tillar jumlasidan, o'zbek tili uchun xos tovush emas. U o'zbek tiliga fors-tojik tili orqali arab tilidan kirib kelgan. Navoiy asarlarida f fonemasining qo'llanishi, uning p tovushiga o'tmasligi va p tovushi f undoshining kelishi kabilar o'zbek tilining Samarqand-Buxoro tipidagi shevalarga yaqinlashib kelishini ko'rsatadi: tuproq (tufroq, yaproq) yafroq).

Dedi: el ganju kuy ishkin nixon?

Dedi: tufroqqa berman kimeni.

Zaif tanda g'amingdin yuz eski bulg'on dog',

Har eski dog' bu shox uzra bir kuyuk yafroq.

Demak, Alisher Navoiy turkiy tilning fasohati va lug'aviy boyligini dalillar bilan isbotlash vositasida turkiy tildagi adabiyot-she'riyatning yanada ravnaq topishi lozimligini ham nazarda tutgan.

A.Navoiy o'zbek tilining boy sinonimlaridan o'z asarlarida ustalik bilan foydalangan. O'zbek tilida turli ma'no nozikliklarini ifodalovchi sinonimik fe'llardan 100 tasini "Muhokamatul lug'atayn"da ham eslatib o'tadi: "Bu 100 lafzdurki, g'arib maqosid tayin qilibdurlarki, hech qaysi uchun sort tilida lafz yasamaydurlar". A.Navoiy o'zi keltirgan 100 fe'ling har biri o'zbek tilida o'z sinonimlariga ega ekanligini ta'kidlaydi. Masalan, biror bir suyuqlikni ichish harakatini ko'rsatuvchi ichmoq fe'li bor. Navoiy bu fe'ling sipqarmoq, tomshimoq kabi sinonimlardan ham foydalangan:



*Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o'zimdin boray,
Shart bukim, har necha tutsang labo-lab sipqaray.
Soqiy, chu ichib, menga tutar qush,
Tomshiy-tomshiy oni qilay no'sh.*

Navoiy yuqoridagi misollarni keltirar ekan, ulardagi sinonimlarning poetik ustunligini, stilistik bo'yoqdorligini va poeziyadagi rolini ko'rsatadi. Bu bilan tildagi sinonimlarning rolini yaxshi tushunib yetganligini namoyish etadi.

Navoiy leksik me'yorlarni belgilashda hayotning turli sohalariga tegishli bir qancha turkiy so'zlarni o'z asarlariga singirdi. Ular quyidagilardan iborat:

1. **Oziq-ovqat nomlari:** qaymoq, qatlama, bulamo'q, qurut, ulaba, mantu, quymoq, o'rkamach, qo'mo'z, suzma, boza, tatmach, umach, qumaq kabi.
2. **Chorvachilikka oid so'zlar:** tubuchaq, arg'umach, yaqa, yabu, taju; tay, g'unan, dunan, tulan, cho'rg'a, lang'a, jabildir, xana, toqum, chilvir kabi.
3. **Kiyim-bosh nomlari:** dastar, qalpaq, navro'zi, to'ppo', sho'rdaq, jalak, dakla, qur, terlik kabi.
4. **Ov hayvonlari nomlari:** kiyik, to'ng'uz, xuna, qo'lpaqcho', suyqun, bug'u, maral, oxu, gavazi, xuk, guraz kabilar.

Navoiy faqat leksik me'yorlarnigina emas, balki grammatik me'yorlarni belgilashda ham samarali ish qildi. U o'z asarlari grammatik shakllarining ixchamligiga va so'z yasash texnikasiga mas'uliyat bilan qaradi. Alisher Navoiy o'z asarlarida o'zbek tilining leksik boyliklaridan, sinonimlari va omonimlaridan, xalq maqollari va matalaridan, frazeologik, idiomatik birikmalaridan, jumla tuzilishidan keng foydalangan. Natijada, leksik va grammatik me'yorlarni ma'lum qolipga, tartibga solishga intilgan.

Tildagi o'zgarishlar birdaniga bir-ikki yil orasida emas, balki asta-sekinlik bilan uzoq davr davomida sodir bo'ladi. Dastlab onda-sonda uchraydigan hodisalar, fonetik variantlar, yonma-yon qo'llanishlar asta-sekin qonuniyatlarga aylanadi. Shuning uchun har bir davrdagi til shu tilda so'zlovchilar uchun o'zgarmaydi, barqaror tuyuladi. Vaholanki, tilda taraqqiyot va o'zgarishlar hech qachon to'xtamaydi. Har bir taraqqiyot davri uchun xos bo'lgan fonetik sistemani tiklash, tasvirlash kabi masalalar ham o'zbek tili tarixiy fonetikasida o'rganiladi.

O'zbek tilining turli taraqqiyot davrlarida yaratilgan yozma yodgorliklar, ilmiy va badiiy asarlar tarixiy fonetik tadqiqot uchun eng asosiy manba vazifasini o'taydi, chunki yaratilgan yodgorlikda davr tili o'z aksini topgan.

Bizningcha, o'zbek tilini o'qitishda fonetika va uning grammatikasi muhim ahamiyatga ega, negaki, nutq tovushlari, tovushlarning hosil bo'lishini to'g'ri egallagan har bir o'quvchi tovushlarning talaffuzini yaxshi anglaydi.

Fonetika (grekcha pohne - tovush) nutq tovushlari, ularning hosil bo'lishi, talaffuzi, imlosi, tasnifi, harf va yozuvning o'zaro munosabati, bo'g'in va bo'g'in ko'chirish, so'z urg'usi xususiyatlari kabi hodisalar haqidagi fan. Unda nutq tovushlari – so'zlarning, qo'shimchalarning eng kichik bo'lagi va talaffuzi o'rganiladi.

Aynan umumta'lim maktab ona tili darsliklarida fonetika bo'yicha o'rganish boshlang'ich va beshinchi sinfdan boshlanadi. Bunda berilgan so'zlardagi tovushlar talaffuzi qiyoslanadi, unli va undoshlarning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Tovushlar talaffuzida ishtirok etadigan nutq a'zolari belgilanadi. Berilgan so'zlarga tovushdosh (tosh, tish, tush, to'sh kabi), shakldosh (tosh – suvda erimaydigan qattiq tog' jismi, ot; sakkiz chaqirimga teng masofa, ot; bir toshdan ortiq yo'l bosdi kabi), fe'l – toshmoq, qirg'oqdan chiqib ketmoq; zid ma'noli (toshbag'ir – ko'ngilchan, ko'ngli bo'sh) so'zlar topib, ma'nolarini izohlashi ko'rsatib o'tilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizningcha, o'zbek tilining sohada qo'llanilishi fanini o'qitishda mashqlar tahlili va matnlarning tartibiga ahamiyat berilsa, talabalar so'z, so'z birikma va gaplarning ifodalanish tartibini yaxshi o'zlashtira oladi.

Gap tilning eng yuqori pog'onasini tashkil etuvchi birlik hisoblanadi, shu sababli, gapni matnning qurilish materiali tarzida talqin etish, matnni shakllantiruvchi asosiy til birligi deb hisoblash maqsadga muvofiqdir. Nemis tilshunosi M.Pfytse aytganidek, har bir matn biror maqsad ifodasi uchun o'zaro munosabatga kirishayotgan fraza (gap)larning mazmuniga ko'ra birikishidan hosil bo'ladi. Ammo gap matnning qurilish materiali singari talqin etilganda mustaqil so'z va so'z birikmasining matn tarzida maxsus qo'llanishi e'tibordan chetda qoladi. Shunisi aniqki, yakka, alohida olingan gap bog'lanishli nutq materiali sifatida matn tarkibida so'z va so'z birikmalarining o'zaro munosabati asosida aniqlashadi. Olimning yuqorida keltirilgan mulohazalarida ham asosiy e'tibor masalaning aynan shu tomoniga qaratilgani ma'lum bo'ladi.



“O‘zbek ilmiy matnining sintagmatik talqini”da M.Hakimov matn va uning birliklari o‘rtasidagi mazmuniy munosabatni ifodalovchi bog‘lovchilar ekanligi hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari va vazifalariga aniqlik kiritgan. Ushbu ilmiy matnda muallifning munosabati bildirilgan bo‘lib, uning turlari, o‘zbekcha ilmiy matnlarning sintagmatik va pragmatik xususiyatlari keng tahlil qilib yoritilgan. O‘zbek tilida berilgan ilmiy uslub matn kategoriyasi aspektida o‘rganilgan va gumanitar fanlarga tegishli bo‘lgan ilmiy matn namunalari faktik material sifatida xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев. (2019). “Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида” ПҚ–4479-сон Қарори.
2. Shermuhamedova, S. (2023). O‘zbek tili (darslik). Toshkent: IQTISOD-MOLIYA. 200 b. (Adabiyot TDIU ARMda bosma va elektron shaklda mavjud)
3. Muxitdinova, M. (2022). O‘zbek tilini o‘rganamiz (darslik). Toshkent: TDIU. 250 b. (Adabiyot TDIU ARMda bosma va elektron shaklda mavjud)
4. Husanov, N., Dilmurodova, N., & Xo‘jaqulova, R. (2022). O‘zbek tili (elektron darslik). 244 b. (Adabiyot TDIU ARMda bosma va elektron shaklda mavjud)
5. Mamatkadirovna, A. K., Mamatkadirovna, N. K., & Burxonovna, A. C. (2021). Translation as a special type of language and intercultural communication. JournalNX, 176–180.
6. O‘roqovna, H. M., & Isomiddinovna, Z. Z. (2021). About “Kutadgu Bilig” and its interpretation in foreign languages. JournalNX, 185–188.
7. Karimova, A. M., & Sh., A. Z. (2021). The problem of reflecting nationality in literary translation. JournalNX, 428–432.
8. Umarov, K. (2020). Роль наследия великого Алишера Навои в мировой цивилизации. Oriental Art and Culture, (III), 121–126.
9. Umarov, K. J. (2022). Ўзбек тилида модал феълларнинг хосланиши. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2(10), 33–36.
10. Umarov, K. (2021). Мустақиллик йилларида ўзбек тили лексикасининг бойиш манбалари ва уларнинг қиёсий лексикографик таҳлили. Илмий хабарнома – Научный вестник (Андижан давлат университети), (3), 77–81.
11. Abduraxmonova, R. N. (2025). Nemis tilidagi diniy matnlarning o‘zbek tiliga qilingan tarjima namunalari asosida deiktik birliklarning lingvopragmatik tahlili. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari, 5(11), 177–182.
12. Asadov, M. (2025, July). Homo poeticus konsepsiyasi: Navoiy va Rumiy. In Conferences (Vol. 1, No. 1).
13. Asadov, M. (2025). The concept of individualism and absurdity in Camus’ “The Stranger”. American Journal of Philological Sciences, 5(03), 119–123.
14. Asadov, M. (2023). Sizif haqida mif: Kamyu va Xurshid Do‘stmuhammad. In Conferences (Vol. 1, No. 1).
15. Asadov, M. T. (2022). Existential interpretation of the motive of “loneliness” in the work “The Stranger” by Albert Camus. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(2), 1–6.
16. Turaevich, A. M. (2022, January). Loneliness and absurdity as the basis of Albert Camus’ concept of art. In European Journal of Science Archives Conferences Series (Vol. 2013, p. 30).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.